

O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI JIZZAX FILIALI

ISSN 2181-3884



ZAMONAVIY ILMIY-TEXNIK TADQIQOTLAR

xalqaro jurnali

Vol.2 N.1

2026

**International Journal of
Contemporary Scientific
and Technical Research**

Volume 2 Issue 1

2026

**Zamonaviy ilmiy-texnik
tadqiqotlar xalqaro jurnali**

1-son

2026

**Международный журнал
современных научно-**

технических

исследований

Том 2 Выпуск 1

2026



MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETINING JIZZAX FILIALI

Xalqaro ilmiy-elektron jurnali

Tahrir kengashi raisi:

P.f.d., prof., O.X. Turakulov

Bosh muharrir:

A.A. Abdumalikov

Tahrir kengashi mas'ul kotibi:

D.M. Jomurodov

Tahririyat hay'ati:

1. B.f.d., prof., S. Murodova (O'zMU Jizzax filiali, UZB)
2. P.f.n., prof., S. Usmanov (O'zMU Jizzax filiali, UZB)
3. T.f.n., dos., S. Tavboev (O'zMU Jizzax filiali, UZB)
4. F.f.d., prof., N. Djusupov (O'zDJTU, UZB)
5. T.f.d., dos., S. Ruzimov (TTPU, UZB)
6. P.f.d., prof., G. Lekerova (SKU, KZH)
7. DSc., Ali Coşkan (ASUI, TR)
8. T.f.d., prof., D. Irgasheva (TATU, UZB)
9. T.f.d., prof., I. Siddikov (NRU TIIAME, UZB)
10. T.f.n., dos., S. Eshkabilov (NDU, US)

Zamonaviy ilmiy-texnik tadqiqotlar xalqaro elektron jurnali (International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research) O'zMU Jizzax filiali Kengashining qaroriga asosan tashkil etilib, 2022-yil 9-sentabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №038200 raqami bilan ro'yxatidan o'tkazilgan, shuningdek davlatlararo standartlar talabi asosida O'zbekiston Milliy kutubxonasidan jurnal uchun 2181-3884 ISSN raqami olingan.

© "O'zMU Jizzax filiali" – 2023

Tahririyat manzili:

130100, Jizzax viloyati, Jizzax shahri,
Sh.Rashidov Shox ko'chasi, 259-uy.

BO‘LAJAK PEDAGOGLARNING KASBIY IDENTIKLIGINI SHAKLLANTIRISHDA DEONTOLOGIK VA INTEGRATSION YONDASHUVLARNING PEDAGOGIK MEXANIZMLARI

Ismailova Nilufar Isroildjanovna

Namangan davlat pedagogika instituti, dotsent

Annotatsiya

Ushbu maqolada bo‘lajak pedagoglarning kasbiy identikligini shakllantirishning dolzarb pedagogik mexanizmlari deontologik (burch va mas‘uliyat haqidagi ta‘limot) va integratsion yondashuvlar kontekstida tadqiq etilgan. Maqolada bo‘lajak pedagoglarning kasbiy o‘zini o‘zi anglashi, qadriyatli-kasbiy yo‘naltirilganligi hamda deontologik madaniyatini rivojlantirishda fanlararo integratsiyaning o‘rnini asoslab beradi. Pedagogik mexanizmlarning tarkibiy qismlari (motivatsion, qadriyatli, faoliyatli) tahlil qilinib, oliy pedagogik ta‘lim jarayonida talabalarning kasbiy identikligini samarali transformatsiya qilish modelining konseptual asoslari taklif etilgan. Tadqiqot natijalari bo‘lajak mutaxassislarda kasbiy mas‘uliyat, etika va kompetentlikni sinxron (jonli) tarzda shakllantirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: kasbiy identiklik, pedagogik deontologiya, integratsion yondashuv, pedagogik mexanizm, bo‘lajak pedagog, qadriyatli yo‘naltirilganlik, kasbiy etika, fanlararo integratsiya.

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ ДЕОНТОЛОГИЧЕСКОГО И ИНТЕГРАЦИОННОГО ПОДХОДОВ В ФОРМИРОВАНИИ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ИДЕНТИЧНОСТИ БУДУЩИХ ПЕДАГОГОВ

Исмаилова Нилуфар Исроилджановна

Наманганский государственный педагогический институт, доцент

Аннотация

В данной статье исследуются актуальные педагогические механизмы формирования профессиональной идентичности будущих педагогов в контексте деонтологического и интеграционного подходов. Обосновывается роль междисциплинарной интеграции в развитии профессионального самосознания, ценностно-профессиональной направленности и деонтологической культуры будущих учителей. Анализируются мотивационный, ценностный и деятельностный компоненты педагогических механизмов, а также предлагаются концептуальные основы модели эффективного формирования и трансформации профессиональной идентичности студентов в системе высшего педагогического образования. Результаты исследования способствуют развитию профессиональной ответственности, педагогической этики и компетентности будущих специалистов.

Ключевые слова: профессиональная идентичность, педагогическая деонтология, интеграционный подход, педагогический механизм, будущий педагог, ценностная направленность, профессиональная этика, междисциплинарная интеграция.

PEDAGOGICAL MECHANISMS OF DEONTOLOGICAL AND INTEGRATIVE APPROACHES IN THE FORMATION OF FUTURE TEACHERS' PROFESSIONAL IDENTITY

Ismailova Nilufar Isroildjanovna

Namangan State Pedagogical Institute, Associate Professor

Abstract

This article examines the relevant pedagogical mechanisms for shaping the professional identity of future educators within the context of deontological (the doctrine of duty and responsibility) and integrative approaches. The author substantiates the role of interdisciplinary integration in developing future teachers' professional self-awareness, value-professional orientation, and deontological culture. The paper analyzes the structural components of pedagogical mechanisms (motivational, value-based, and activity-oriented) and proposes the conceptual foundations of a model for effectively transforming students' professional identity during higher pedagogical education. The research findings contribute to the synchronous development of professional

responsibility, ethics, and competence in future specialists.

Keywords: professional identity, pedagogical deontology, integrative approach, pedagogical mechanism, future educator, value orientation, professional ethics, interdisciplinary integration.

Zamonaviy oliy pedagogik ta'limning ustuvor vazifalaridan biri nafaqat fan asoslarini puxta egallagan, balki o'z kasbining ijtimoiy-axloqiy mas'uliyatini chuqur anglaydigan, kasbiy qiyofasi barqaror shakllangan pedagogni tarbiyalashdir. Bunday mutaxassisni tayyorlash jarayonida markaziy o'rin tutadigan kategoriya — kasbiy identiklik, ya'ni shaxsning o'zini muayyan kasb vakili sifatida anglashi, qabul qilishi va shu kasbning qadriyatlarini bilan ichki uyg'unlashuvidir. Kasbiy identiklik shakllanmagan pedagog vaqt o'tishi bilan kasbiy faoliyatda rasmiyatchilik, befarqlik va kasbiy deformatsiyaga moyil bo'ladi; aksincha, barqaror identiklikka ega pedagog murakkab vaziyatlarda ham o'z kasbiy e'tiqodiga sodiq qoladi va axloqiy tanlovlarni mustaqil amalga oshiradi.

Mazkur tadqiqotda kasbiy identiklikni shakllantirishning ikki o'zaro to'ldiruvchi metodologik asosi — deontologik va integratsion yondashuvlar hamda ularning pedagogik mexanizmlari tahlil qilinadi. Deontologik yondashuv talabada kasbiy burch, axloqiy me'yor va mas'uliyatga asoslangan qiyofani shakllantirishga, integratsion yondashuv esa turli fanlar, faoliyat turlari va qadriyat manbalaridan keladigan bilim hamda tajribalarni yagona kasbiy "Men" obrazida birlashtirishga qaratilgan. "Pedagogik mexanizm" deganda biz mazkur yondashuvlar maqsadlarini amaliyotga aylantiruvchi maqsad, mazmun, shakl, metod va vositalarning o'zaro bog'langan tizimini tushunamiz. Bu mexanizmlar yaxlit ishlamasa, deontologik me'yorlar quruq deklarativ qoidalar bo'lib qoladi, integratsion yondashuv esa fanlarning sun'iy integratsiyasigagina aylanadi.

Tadqiqot usullari

Tanlangan ikki yondashuvning nazariy-metodologik asoslari turli ilmiy an'analarga borib taqaladi. Deontologik yondashuvning ildizlari etika falsafasiga, burch, mas'uliyat va kasbiy axloq haqidagi ta'limotlarga tayanadi. Integratsion yondashuv esa ilmiy bilimlarning yaxlitligi va fanlararo sintez g'oyasiga, ta'lim mazmunini tizimli tashkil etish konsepsiyalariga asoslanadi. Ushbu ikki an'ananing oliy pedagogik ta'lim sharoitida birlashtirilishi tadqiqotning asosiy metodologik o'zagini tashkil etadi: deontologik mazmun integratsion shakl orqali yetkaziladi va shu tariqa ular yagona pedagogik tizimga aylanadi. Quyida avval kasbiy identiklik tushunchasining mohiyati, so'ng har bir yondashuvning o'ziga xos mexanizmlari hamda nihoyat ularning o'zaro uyg'unligi izchil ravishda tahliliy va amaliy jihatdan ko'rib chiqiladi.

ADABIYOTLAR TAXLILI

Kasbiy identiklik psixologik-pedagogik adabiyotlarda integrativ va ko'p qatlamli tushuncha sifatida talqin qilinadi. Uning nazariy ildizlari shaxs identikligi muammosiga borib taqaladi. E. Erikson identiklikni shaxsning ichki dunyosi bilan ijtimoiy muhit o'rtasidagi uzluksiz o'zaro muvofiqlashuv mahsuli sifatida izohlaydi va uni inson kamolotining markaziy hodisasi deb hisoblaydi. Kasbiy psixologiya doirasida E.F. Zeer kasbiy shakllanishni shaxsning kasblar olamiga yo'nalishi, kasbiy o'zini o'zi belgilashi va kasbiy faoliyatda o'z salohiyatini ro'yobga chiqarishi jarayoni sifatida tavsiflaydi. Ushbu nazariy asoslar kasbiy identiklikni shaxsning kasbiy faoliyat subyekti sifatidagi yaxlit o'zlik tasavvuri deb belgilash imkonini beradi.

E. Erikson identiklik nazariyasining asoschisi sifatida shaxsning psixososial rivojlanishi va "Men" konsepsiyasini ilmiy asoslagan. J. Bentham fanga "deontologiya" (burch haqidagi ta'limot) tushunchasini birinchi bo'lib kiritgan olim hisoblanadi. D. Beijaard, P. Meijer va N. Verloop kabi zamonaviy olimlar o'qituvchilarning kasbiy identikligi o'zgaruvchanligi va unga ta'lim muhitining ta'sirini maxsus tadqiq etganlar. Christopher Day o'qituvchilarning hissiy kechinmalari, kasbga sadoqati va identikligi barqarorligi masalalarini o'rgangan.

Maria Flores bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash dasturlarida kasbiy identiklikning shakllanishi va uning inqirozlari (ijtimoiy hamda shaxsiy qarashlar to'qnashuvi) muammolarini o'rgangan. U identiklik barqaror emas, balki dinamik jarayon ekanligini isbotlagan. Jean-Frédéric De Pietro va boshqa olimlar talaba-pedagoglarning amaliyot davridagi professional identifikatsiyasini o'rganib, uning reflektiv modellarini taqdim etganlar.

MUXOKAMA VA NATIJALAR

Tadqiqotda kasbiy identiklikning uchta tarkibiy komponenti ajratiladi. Kognitiv komponent kasb

mohiyati, uning ijtimoiy ahamiyati, kasbiy faoliyatning maqsad va vazifalari hamda axloqiy me'yorlari haqidagi bilim va tasavvurlarni qamrab oladi; u talabning pedagogik fenomenlarni tahlil qilish va izohlash qobiliyatida namoyon bo'ladi. Emotsional-qadriyatli komponent kasbga nisbatan ijobiy munosabat, kasbiy g'urur, kasbga daxldorlik hissi va kasbiy qadriyatlarning shaxsiy qabul qilinishini ifodalaydi; aynan shu komponent identiklikning eng nozik, motivatsion o'zagini tashkil etadi. Faoliyatli-xulqiy komponent kasbiy me'yorlarni real xatti-harakatlarda, qaror qabul qilishda va axloqiy tanlovlarda namoyon eta olish layoqatini bildiradi; u bilim va qadriyatlarni amaliy faoliyatda yaxlitlashtiruvchi integrator vazifasini bajaradi. Bu uch komponent bir-biridan ajralgan holda emas, balki o'zaro bog'liqlikda rivojlanadi: kognitiv bilim qadriyatli munosabatga, qadriyatli munosabat esa barqaror xulq-atvorga aylanganda kasbiy identiklik yaxlit holatga keladi.

Komponentlar o'rtasidagi bu dinamik bog'liqlik kasbiy identiklikni statik holat emas, balki uzluksiz rivojlanuvchi jarayon sifatida tushunishni taqozo etadi. Talaba o'qish davomida o'zining kasbiy "Men" obrazini bir necha bor qayta ko'rib chiqadi: dastlabki romantik tasavvurlar real amaliyot bilan to'qnashganda inqirozli daqiqalar yuzaga keladi, ammo aynan shu inqirozlarni yengib o'tish orqali identiklik mustahkamlanadi. Shu ma'noda kasbiy identiklikning shakllanishi — bu shaxsiy "Men" bilan kasbiy "Men" o'rtasidagi ko'priknining bosqichma-bosqich mustahkamlanishidir. Pedagogik mexanizmlarning vazifasi esa ushbu ko'priknining uzilib qolmasligini, ya'ni har bir inqirozdan keyin identiklikning yangi, yuqoriroq darajaga ko'tarilishini ta'minlashdan iborat.

Kasbiy identiklikni unga yaqin tushunchalardan farqlash muhim. Kasbiy kompetentlik asosan "Nimani bilaman va qila olaman?" savoliga, kasbiy identiklik esa "Men kimman, qaysi kasb vakiliman va qaysi qadriyatlarga sodiqman?" savoliga javob beradi. Kompetentlik vositaviy, instrumental xususiyatga ega bo'lsa, identiklik shaxsiy-qadriyatli, ma'noviy xususiyatga ega. Yuqori kompetentlikka ega, ammo identikligi shakllanmagan mutaxassis kasbga befarq qarashi, uni shunchaki ish o'rni sifatida ko'rishi mumkin. Aynan shu sababli oliy pedagogik ta'lim oldida turgan vazifa kompetentlik bilan bir qatorda kasbiy identiklikni ham maqsadli shakllantirishni taqozo etadi. Bu esa deontologik va integratsion yondashuvlarning birgalikda qo'llanilishini zarur qiladi.

Kasbiy identiklikning shakllanishi bir martalik hodisa emas, balki bosqichma-bosqich kechadigan, kursdan kursga chuqurlashib boradigan jarayondir. Ushbu jarayonning umumlashtirilgan bosqichlari 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

Bo'lajak pedagogning kasbiy identikligi shakllanishining bosqichlari

Bosqich (kurs)	Yetakchi mazmun	Ustuvor komponent va natija
I bosqich (1-kurs)	Kasb haqida dastlabki tasavvur, sodda axloqiy me'yorlar bilan tanishish, motivatsiyani uyg'otish	Kognitiv – kasbiy yo'nalganlikning shakllanishi
II–III bosqich (2–3-kurs)	Pedagogik va deontologik fenomenlarni mustaqil tahlil qilish, qadriyatlarni anglash, amaliyotga jalb etilish	Emotsional-qadriyatli – kasbga daxldorlik hissining mustahkamlanishi
IV bosqich (4-kurs)	Mustaqil pedagogik mulohaza, deontologik tanlovlarni amalga oshirish, refleksiya	Faoliyatli-xulqiy – barqaror kasbiy identiklikning shakllanishi


Jadvaldan ko'rinadiki, kasbiy identiklikning shakllanishi vertikal yo'nalishda — oddiy tasavvurdan murakkab kasbiy mulohazaga, kognitiv darajadan faoliyatli-xulqiy darajaga qarab harakatlanadi. Bu jarayonning har bir bosqichida deontologik va integratsion yondashuvlar mexanizmlari turli nisbatda, ammo o'zaro uyg'un holda qo'llaniladi.

Deontologik yondashuv kasbiy axloq va burch nazariyasiga tayanadi. "Deontologiya" atamasi yunoncha *deontos* — burch, *logos* — ta'limot so'zlaridan tashkil topgan bo'lib, etikaning mutaxassis xulq-atvori

me'yorlari va burchini o'rganuvchi qismini bildiradi. Pedagogik deontologiya esa o'qituvchining kasbiy faoliyatdagi xulq-atvor qoidalari va burch talablarini o'rganadi. Konstantin Mikhailovich Levitan pedagogik deontologiyani shaxsning ichki qadriyatlarini bilan tashqi me'yoriy talablar o'rtasidagi muvozanatga asoslangan tizim sifatida tavsiflaydi. Deontologik yondashuvning kasbiy identiklikni shakllantirishdagi asosiy pedagogik mexanizmlari quyidagilardan iborat.

Birinchi mexanizm — me'yoriy bilimni shaxsiy qadriyatga aylantirish (interiorizatsiya). Bu mexanizm uch bosqichni qamrab oladi: talaba avval kasbiy axloq me'yorini biladi (kognitiv daraja), so'ng uning maqsadga muvofiqligi va zarurligini anglaydi (qadriyatli daraja), nihoyat uni o'z e'tiqodi va ichki tamoyiliga aylantiradi (shaxsiy daraja). Interiorizatsiya tugallanganda axloqiy me'yor tashqi nazoratga muhtoj bo'lmay, shaxsning o'zini o'zi boshqarish vositasiga aylanadi. Aynan shu sababli deontologik tayyorgarlik me'yorlarni yodlatish bilan emas, balki ularning ichki ma'nosini ochib berish orqali samarali bo'ladi.

Interiorizatsiya mexanizmini ishga tushirishning muhim sharti — talabanning emotsional jalb etilishidir. Me'yor faqat aql bilan emas, balki his-tuyg'u orqali ham qabul qilingandagina ichki qadriyatga aylanadi. Shu sababli bu mexanizm muammoli savollar, qadriyatli munozaralar va shaxsiy ma'noga ega vaziyatlar orqali faollashtiriladi.



1.rasm: Deontologik yondashuvning kasbiy identiklikni shakllantirishdagi asosiy pedagogik mexanizmlari

Talaba “Bu me'yor menga nima uchun zarur?” degan savolga o'zi javob topganda, tashqi talab uning shaxsiy e'tiqodiga aylanadi. Interiorizatsiya tugallanganligining ko'rsatkichi talabanning nazorat bo'lmagan paytda ham axloqiy me'yorga muvofiq harakat qilishidir.

Ikkinchi mexanizm — deontologik muammoli vaziyatlarni (keyslarni) hal qilish. Talabaga real pedagogik amaliyotdan olingan axloqiy ziddiyatlar (masalan, baholashdagi adolat dilemmasi, hamkasb bilan munosabatdagi nizo, ota-onaning nomaqbul talabi) taqdim etiladi. Talaba bunday vaziyatni idrok etish, tahlil qilish, yechim variantlarini baholash, qaror qabul qilish va refleksiya bosqichlari orqali hal qiladi. Bu jarayonda u nazariy me'yorni amaliy harakatga aylantirishni va o'z qarorining oqibatlari uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishni o'rganadi. Keyslarning takroran qo'llanilishi miqdoriy o'zgarishlarni sifat o'zgarishiga aylantirib, kasbiy identiklikning barqaror negizini hosil qiladi.

Deontologik keyslarning mazmuni real pedagogik faoliyatning eng murakkab axloqiy dilemmalaridan tanlab olinadi. Quyida talaba bilan tahlil qilinadigan namunaviy vaziyatlardan uchta keltiriladi.

1-namuna (“Sirni saqlash dilemmasi”). Talabaga vaziyat taqdim etiladi: sinf rahbari o'quvchilardan birining nojo'ya xatti-harakatda gumon qilinayotganini aytadi, ammo buni oshkor qilmaslikni so'raydi; gumon ostidagi o'quvchi esa amaliyotchi-talabanning ishonchli o'quvchisi hisoblanadi. Bu yerda hamkasbga sodiqlik va

o'quvchiga adolatli yondashuv qadriyatlarini to'qnashadi. Talaba burchlar ierarxiasini belgilash, o'quvchining huquqlarini himoya qilish va shu bilan birga hamkasb bilan munosabatni saqlab qolish yo'llarini izlaydi.

2-namuna ("Ota-onaning bosimi"). Ota-ona farzandiga qo'yilgan past bahodan norozi bo'lib, uni o'zgartirishni talab qiladi va salbiy oqibatlar bilan tahdid qiladi. Akademik halollik va shaffof baholash tamoyili bir tomonda, shaxsiy tinchlik istagi esa ikkinchi tomonda turadi. Talaba bahoning o'quvchi rivojlanishidagi haqqoniy ahamiyatini, tahdidli vaziyatda muloqot strategiyasini va kasbiy halollikni saqlash yo'llarini muhokama qiladi.

3-namuna ("Hamkasbning beparvoligi"). Tajribali hamkasb darslarga tayyorgarlikdan kirib, o'quvchilarga e'tiborsiz munosabatda bo'ladi. Ustozga hurmat va o'quvchilarning ta'lim olish huquqini himoya qilish qadriyatlarini o'rtasida ziddiyat yuzaga keladi. Talaba sukut saqlashning oqibatlarini, hamkasbning izzat-nafsini saqlagan holda vaziyatni hal qilish imkoniyatlarini va qaysi qadriyat ustun bo'lishi kerakligini tahlil qiladi.

Bunday namunalarni tahlil qilish talabani tayyor javoblardan voz kechib, mustaqil axloqiy mulohaza yuritishga undaydi. Har bir keys idrok etish, tahlil qilish, baholash, qaror qabul qilish va refleksiya bosqichlari bo'yicha ishlanib, talabada deontologik vaziyatlarda harakat qilishning ichki algoritmi shakllanadi. Aynan shu algoritmnining takroran qo'llanilishi kasbiy identiklikning faoliyatli-xulqiy komponentini barqarorlashtiradi.

Uchinchi mexanizm — o'rnak va model orqali o'rganish. Albert Bandura asoslagan ijtimoiy o'rganish nazariyasiga ko'ra, shaxs xulq-atvorni ko'p jihatdan boshqalarning namunasini kuzatish va unga taqlid qilish orqali o'zlashtiradi. Pedagogik ta'limda bu mexanizm ustozning shaxsiy o'rnagi, professor-o'qituvchilarning talabaga munosabati va amaliyot davridagi mentor namunasi orqali amal qiladi. Ustozning haqqoniyligi, taktililigi va kasbiga sadoqati talaba uchun jonli deontologik me'yor vazifasini bajaradi; aksincha, o'qituvchining so'zi bilan harakati o'rtasidagi nomuvofiqlik talabada kasbiy ishonchsizlikni keltirib chiqaradi. Masalan, John Amos Comenius pedagogikani tizimli fan darajasiga ko'targan va o'zini butunlay shu sohaga baxsh etgan shaxsdir. Uning pedagogik identikligi shundaki, u insoniyat tarixidagi ulkan diniy va ijtimoiy urushlar, shaxsiy fojialar (oila a'zolarining vafoti) sharoitida ham dunyoni ta'lim orqali qutqarish g'oyasiga sodiq qolgan. O'sha davrning murakkab voqealari, oilaviy fojialari va shunga qaramay to'xtamagan ijodi haqida so'zlash talabani kasbning naqadar yuksak mas'uliyatga ega ekanligini his qilishga undaydi.

To'rtinchi mexanizm — refleksiya. Donald Schon kasbiy mahoratning markazida harakatdagi refleksiya (*reflection-in-action*) va harakat haqidagi refleksiya (*reflection-on-action*) turishini ko'rsatadi. Talaba o'zi guvoh bo'lgan yoki ishtirok etgan deontologik vaziyatlarni, o'z hissiy kechinmalari va yo'l qo'ygan xatolarini tahlil qilish orqali kasbiy o'zlikni anglash darajasini oshiradi. Bu mexanizmni amalga oshirishning samarali vositasi "refleksiv kundalik" texnologiyasi bo'lib, u talabada o'z xatti-harakatiga obyektiv baho berish layoqatini rivojlantiradi va kasbiy identiklikning sof shaxsiy mazmun kasb etishini ta'minlaydi.

Refleksiya mexanizmi pedagogik amaliyot bilan uzviy bog'langanda eng samarali bo'ladi. Talaba har bir amaliyot kunidan so'ng o'zi guvoh bo'lgan deontologik vaziyatni, o'z his-tuyg'ularini va muqobil yechimlarni kundalikda tahlil qiladi. Bu jarayon "Nima bo'ldi?", "Men nima his qildim?", "Nima uchun shunday yo'l tutdim?" va "Keyingi safar qanday qilaman?" savollari atrofida tashkil etiladi. Muntazam refleksiya talabada o'z xatosini tan olish jasoratini va kasbiy o'sishga intilishni shakllantiradi, bular barqaror kasbiy identiklikning muhim belgilaridir.

Beshinchi mexanizm — axloqiy mulohaza va deontologik tanlov. Bu mexanizm talabaning qadriyatlar ierarxiasiga tayangan holda ziddiyatli vaziyatlarda eng maqbul pedagogik yechimni mustaqil tanlash layoqatini shakllantiradi. Axloqiy mulohaza muammoni axloqiy nuqtai nazardan idrok etish, turli qadriyatlarni taqqoslash va ularning ustuvorligini belgilashni talab etadi. Sanab o'tilgan beshta mexanizm birgalikda kasbiy identiklikning emotsional-qadriyatli va faoliyatli-xulqiy komponentlarini mustahkamlaydi.

Yuqorida tavsiflangan beshta deontologik mexanizm o'zaro bog'liq va bir-birini to'ldiruvchi tizimni tashkil etadi: interiorizatsiya me'yorni qadriyatga aylantiradi, keys uni amaliyotda sinaydi, o'rnak namuna beradi, refleksiya tajribani anglatadi, axloqiy mulohaza esa mustaqil tanlovni ta'minlaydi. Ularning izchil va takroriy qo'llanilishi natijasida talabada deontologik madaniyat, kasbiy identiklikning axloqiy o'zagi shakllanadi.

Integratsion yondashuv ta'lim mazmuni, jarayoni va natijasining yaxlitligini ta'minlashga qaratilgan.

“Integratsiya” — ilgari turlicha bo‘lgan qism va elementlarning yagona butunlikka birlashishi jarayonidir; pedagogikada u turli fanlar, faoliyatlar va qadriyat manbalaridan keladigan bilim hamda tajribalarni shaxsning yaxlit kasbiy dunyoqarashida birlashtirishni anglatadi. Vitali Slastenin o‘qituvchi shaxsining kasbiy rivojlanishini maxsus tashkil etilgan qadriyatli-tarbiyaviy muhit ichida amalga oshadigan yaxlit jarayon sifatida ta’kidlaydi. Integratsion yondashuvning asosiy pedagogik mexanizmlari quyidagilardan iborat (2-rasm).



2.rasm: Integratsion yondashuvning asosiy pedagogik mexanizmlari.

Birinchi mexanizm — fanlararo integratsiya. “Pedagogika”, “Psixologiya”, “Falsafa”, “Pedagogik deontologiya”, “Kasbiy etika” hamda xususiy metodika fanlari o‘rtasida mazmuniy aloqalar o‘rnatilib, talabada parchalanmagan, yaxlit kasbiy dunyoqarash shakllantiriladi. Fanlararo integratsiya bir fanda o‘zlashtirilgan tushunchani boshqa fan kontekstida qo‘llash, turli fanlarning g‘oyalarini yagona pedagogik muammoni hal qilishga safarbar etish orqali amalga oshadi. Bu mexanizm talabani “fanlar yig‘indisi” mantig‘idan “yaxlit kasbiy vakolat” mantig‘iga olib o‘tadi.

Ikkinchi mexanizm — nazariy va amaliy tayyorgarlik uyg‘unligi. Nazariy bilimlar pedagogik amaliyot, mikrodarslar, ish o‘yinlari va treninglar orqali real faoliyat tajribasi bilan birlashtiriladi. Bu mexanizm “bilaman” va “qila olaman” darajalari o‘rtasidagi tafovutni bartaraf etadi: talaba auditoriyada o‘zlashtirgan me’yorni real maktab muhitida sinab ko‘radi, natijani tahlil qiladi va bilimini takomillashtiradi. Nazariya bilan amaliyotning uzluksiz almashinuvi kasbiy identiklikning kognitiv va faoliyatli-xulqiy komponentlarini bog‘laydi.

Uchinchi mexanizm — bilimlar sintezi va yagona kasbiy “Men” obrazining shakllanishi. Turli fanlardan olingan bilimlar talaba ongida o‘zaro bog‘lanib, parchalanib ketgan ma’lumotlar emas, balki yaxlit kasbiy o‘zlik tasavvuriga aylanadi. Bu sintez gorizontaal aloqadorlik (bir vaqtning o‘zida turli fanlarning birgalikda qo‘llanishi) va vertikal aloqadorlik (kursdan kursga bilimlarning chuqurlashib borishi) orqali ta’minlanadi. Sintez natijasida talaba o‘zining kasbiy faoliyatini yaxlit tizim sifatida tasavvur qila boshlaydi.

To‘rtinchi mexanizm — milliy meros va zamonaviy ilmiy yondashuvlar integratsiyasi. Milliy-ma’naviy qadriyatlar va xalqimizning boy pedagogik merosi zamonaviy ilmiy konsepsiyalar bilan uyg‘unlashtiriladi. Bu mexanizm milliy meros materiallarini shunchaki o‘qib o‘tishni emas, balki ularni refleksiv mashqlar va muammoli vaziyatlar orqali talabaning bugungi pedagogik xatti-harakatlari bilan solishtirishni (ichki integratsiya) nazarda tutadi. Natijada talabada milliy o‘zlikni anglashga asoslangan, ayni paytda zamonaviy talablarga javob beradigan kasbiy identiklik shakllanadi.

Beshinchi mexanizm — ta’lim muhitining integratsiyasi. Oliy ta’lim muassasasi, umumta’lim maktablari va kasbiy hamjamiyatning yagona qadriyatli makonida hamkorlikda ishlash orqali identiklikning uzluksiz rivojlanishi ta’minlanadi. Agar oliygohda talabaga yuksak deontologik qadriyatlar o‘rgatilsa-yu, amaliyot maktabidagi mentor namunasi bunga zid bo‘lsa, talabada endigina shakllanayotgan kasbiy identiklik buziladi. Shu sababli integratsion yondashuv oliygoh va maktab o‘rtasida yagona deontologik makon yaratilishini talab etadi. Integratsion mexanizmlar, avvalo, kasbiy identiklikning kognitiv komponentini boyitadi va uni yaxlit, tizimli mazmunga ega qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. “Ta’lim to’g’risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni, 2020-yil 23-sentyabr, O‘RQ-637-son // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi (Lex.uz).
2. “Pedagogning maqomi to’g’risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni, 2024-yil 1-fevral, O‘RQ-901-son // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. – 03/24/901/0082-son (Lex.uz).
3. Ермолаева Е. П. Профессиональная идентичность и маргинализм: концепция и реальность // Психологический журнал. – 2001. – Т. 22, № 4. – С. 51–59.
4. Ismailova N. I. Sharq mutafakkirlari merosi asosida bo‘lajak pedagoglarning deontologik madaniyatini rivojlantirishning integrativ mexanizmlari // Kasb-hunar ta’limi. Ilmiy-uslubiy, amaliy, ma’rifiy jurnal. – 2026. – № 2. – B. 50–53.
5. Inoyatov U. I., Muslimov N. A., Ro‘ziyeva D. I., Usmonboyeva M. H. Pedagogika: nopedagogik oliy ta’lim muassasalari uchun darslik. – Toshkent: Fan, 2012. – 246 b.
6. Кенжабоев А. Э., Кенжабоев Д. А. Педагогическая деонтология и профессиональная компетентность педагога // Современное образование (Узбекистан). – 2021. – № 4 (101). – С. 9–15.